# O‘ZBEK BADIIY MATNLARIDA GENDER XUSUSIYATLARINING IFODALANISHI

***Sharifa Madaliyevna Iskandarova,***
***FarDU professori, filologiya fanlari doktori,***
***O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi***

Assotsiativ yondashuvning gender tadqiqi xususida so‘z yuritilganda shuni ta’kidlash zarurki, bu yondashuv *ayol* va *erkak* tushunchalari bilan bog‘liq birliklar nomi, o‘ziga xos tasavvurlarni lug‘aviy ma’no orqaligina emas, balki til egasining xotirasida faollashadigan predmetlar, munosabatlar haqidagi tasavvur, pretsedent obrazlar tizimi orqali kuzatish imkonini beradi. Assotsiativ maydonda bog‘liqlikning asosiy omillari ma’lum birlik ikkinchisini hayotiy tajriba, xotira, vizual obraz, hissiy kechinma, muayyan voqea, badiiy asar, shuningdek, tasodifiy individual xotira orqali ham eslatishi kuzatiladi. Shunga ko‘ra, assotsiativ maydon konnotativ, pragmatik va ko‘chma ma’nolarini aniqlash va namoyon etishda muhim ma’lumot berishi mumkin.

Gender tushunchasini tashkil etgan birliklarni tahlil etish badiiy matnda ham muhim o‘rin tutadi. Jumladan, *belbog‘* so‘zining ma’no tarkibida ‘erkaklik’, ‘mardlik’, ‘kuyov’ kabi tarkibiy qismlar majburiy belgi tarzida doimo ishtirok etmaydi. Ammo o‘zbek millatiga xos til egalarining assotsiativ xotirasida mazkur birlik xuddi shunday ko‘rinishlarda namoyon bo‘ishi mumkin. Shu bilan birga, *alla* so‘zining ma’no tuzilishi ma’lum qo‘shiq turini anglatsa-da, assotsiativ maydonda u *ona, beshik, chaqaloq, bedorlik, tilak, oila* kabi so‘zlar bilan mustahkam aloqaga kirishishi kuzatiladi. Chunki gender farqlanishi ko‘p hollarda so‘zning denotativ strukturasida emas, inson xotirasidagi o‘zaro bog‘liq tushunchalarning munosabatlari orqali maydonga keladi.

Bizga ma’lumki, badiiy matn assotsiativ aloqalarni ikki xil yo‘nalishda aks ettiradi. Dastlabki yo‘nalishda ijodkor millat xotirasida mavjud bo‘lgan umumiy assotsiativ bog‘langan vositalarga murojaat qiladi: *beshik – chaqaloq, alla – ona, belbog‘ – erkak* tarzidagi mushtarak tushunchalar matnni qulay holda ifodalashga xizmat qiladi. Keyingi yo‘nalishda muayyan matnda yangi, shu matnga tegishli assotsiativ aloqa shakllanadi.

Bunda muayyan asar, personaj yoki badiiy detal o‘quvchi xotirasi, xalq xotirasida mustahkamlanib, natijada keyinroq ma’lum stimulga javob tariqasida xuddi shu badiiy asar yoki uning qahramoni yodga keladi. Ko‘rinadiki, badiiy matn assotsiativ xotiradan foydalanibgina qolmay, uning yangi qiyofasini yaratishga ham hissa qo‘shadi.

Masalan, she’riy matnlar orqali badiiy matnning assotsiativ tizilishi muammosini alohida tahlil etar ekanmiz, jumladan, verbal assotsiatsiyalarning ma’lum matn yaxlitligini ta’minlashda, aniq yo‘nalish doirasidagi so‘zlarni o‘zaro bog‘lashda, muhimi, asar muallifining individual idrokini ko‘rsatishda vosita vazifasini bajarishini hisobfa olamiz. Gender tushunchasi nuqtayi nazaridan matndagi **ayol** yoki **erkak** obrazini faqat bevosita genderga tegishli nomlar emas, ular bilan assotsiativ jihatdan bog‘langan *predmetlar, tovushlar, ranglar, marosimlar, kinestetik belgilar* ham hosil qiladi.

Lug‘at ma’lumotlaridan foydalanib, *ayol* stimuliga gender tushunchasi bilan yaqin bo‘lgan milliy-madaniy stimullarni ko‘rsatish mumkin. Masalan, *alla, beshik, chimildiq, belbog‘, angishvona, chopon* singari so‘zlarning assotsiativ maydonida *ayol* va *erkak* so‘zlariga bog‘liq muayyan faollik darajasini aniqlash orqali tahlil qilinadi.

Assotsiativ lug‘at materiallari asosida gender tushunchasiga daxldor assotsiatsiyalarni shartli ravishda bir necha guruhga ajratish mumkin:

1) qarindoshlik assotsiatsiyalari: ona, ota, buvi, bobo, qiz, yigit, kelin, kuyov;

2) faoliyat assotsiatsiyalari: parvarish, kurash, mehnat, duo;

3) marosimlarga oid assotsiatsiyalar: to‘y, nikoh, beshik to‘yi, chilla, kelinsalom, aza;

4) predmet assotsiatsiyalari: beshik, belbog‘, chopon, angishvona, surma;

5) hissiy-aksiologik assotsiatsiyalar: mehr, hayo, g‘urur, mardlik, or-nomus;

6) intertekstual assotsiatsiyalar: ma’lum film, spektakl yoki badiiy asar orqali namoyon bo‘ladi.

Assotsiativ maydonning yadro va periferiyasini belgilashda javob reaksiyalarining chastotasi muhim ko‘rsatkich bo‘lsa-da, uni biologik yoki ontologik ‘mohiyat’ bilan

tenglashtirish mumkin emas. Yuqori chastotali reaksiya muayyan respondentlar guruhining xotirasida shu davr va madaniy sharoitda barqarorroq bog‘lanish mavjudligini namoyon qiladi. Shuni ta’kidlash zarurki, gender tadqiqida so‘zlarning o‘zaro mutanosubligi orqali me’yor belgilansa-da, u badiiy matn uchun doim ham asos bo‘lolmaydi. Genderga daxldor assotsiatsiyalar bevosita *ayol* va *erkak* stimulining to‘ldiruvchlari emas, balki milliy-madaniy realiyalar atrofida hosil bo‘lgan munosabatlar natijasidir. *Alla* stimulining assotsiativ maydoni gender tushunchasidagi eng aniq namoyon bo‘ladi.

*Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,*

*Qumlar bosib qurimasin daryolarim,*

*Alpomishga **alla** aytgan momolarim*

*Ruhini shod etay desang, xalq bo‘l, elim (*Muhammad Yusuf, Saylanma*).*

Allaning oila, xalq og‘zaki ijodi, milliy qo‘shiq belgilari saqlanadi, uning *Vatan, o‘zbek qo‘shig‘i* singari kengroq birliklar bilan bog‘lanishi esa faqat genderga aloqadorligi bilan cheklanmasligini ko‘rsatadi. Demak, bu yerda gender tabiiy belgi emas, til egalari xotirasida yashovchi barqaror belgi, xalq hayotiga tegishli assotsiativ munosabatni namoyon qiladi.

Yuqoridagi she’riy parchada *alla* so‘zi ona – farzand doirasidan chiqib, momo, milliy qahramon va tarixiy xotira tushunchalari bilan tutashgan, ya’ni birikmadagi alla *momo → alpomish → avlod → tarixiy xotira → xalq* uzviyligini namoyon qiladi. *Momo* so‘zi gender belgisi bilan birga, yosh(keksa) va avlod davomiyligi maqomni ham aks ettiradi, ijodkorning maqsadi muayyan ayol xarakterini tasvirlash emas, *momo* so‘zi orqali avlod davomiyligi hamda milliy-madaniy xotirani badiiy obrazga aylantirish sanaladi. *Alla* so‘zi mazkur badiiy matnda milliy qahramon, ajdodlar ruhi, qadim yurt va xalq tushunchalari bilan bir qatorqa kirmoqda. Ko‘rinadiki, badiiy assotsiatsiya orqali assotsiativ maydonning periferiyasi badiiy ifodalar, yangi tushunchaual tushunchalar bilan bog‘lanishlar hisobiga boyib boradi.

Ayrim hollarda mavjud assotsiativ qator boshqa birliklar bilan almashinishi ham mumkin. Jumladan, *beshik, alla* so‘zlari gender belgisidan chekinishi kuzatiladi. Masalan: *Nima, sen mening beshigimni tebratganmisan?* (O‘tkir Hoshimov, Ikki eshik orasi)

Berilgan matn parchasida *beshik* so‘zining predmet belgisi sustlashib, **yosh** belgisi asosiy, muhim belgi vazifasini bajarmoqda. *Beshik* stimulining assotsiativ maydoni *alla* bilan mustahkam bog‘lanadi. *Beshik* so‘zining gender mazmuni uni *ona* so‘zi bilan, *bedorlik* bilan, *avlod* va *bolalik xotirasi* bilan bog‘laydi.

Badiiy matnlarda gender assotsiativ maydonining *erkak* so‘zi bilan uzviy bog‘langan jihatini *belbog‘* so‘zi ko‘rsatadi. Lug‘atlarda bu leksik birlik stimul sifatida olinganda, kamar 23, chopon 19, qiyiq 12 birliklaridan keyin yigit 10, to‘y va aza 9, kurash 5, kuyov 5, mardlik 4, polvon 4, g‘urur 2, o‘zbek yigitlari 2 kabi javoblar qayd etilgani ko‘rsatilgan. Mazkur maydon badiiy matnda ham “erkak” makrotushunchaining *yigit* nominativ birligini faqat jismoniy kuch, qudrat tushunchasi bilangina emas, marosim, kurash, nomus, ijtimoiy maqom va milliy kiyinish madaniyati bilan ham bog‘laydi.

*Belbog‘* so‘zining umumiy assotsiativ ifodasini badiiy kontekst bilan qiyoslash uchun misolga e’tibor qilamiz:

(Kimsanga) *Haqiqiy ota o‘g‘il ekansan. Belida belbog‘i bor yigit ekansan!*(*O‘.Hoshimov, “Ikki eshik orasi”)*

Parchadagi ushbu epizodda Oqsoqolning Kimsanga bergan bahosi belbog‘ni yigitlik maqomi, e’tirof va avlodlar davomiyligi bilan bog‘lagan. Bu parchada ‘belida belbog‘i bor yigit’ iborasi belbog‘ → yigit/mardlik assotsiatsiyasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri faollashtiradi, lekin uning mazmuni predmetning o‘zidan emas, vaziyatdan kelib chiqadi. Oqsoqolning peshonadan o‘pishi, ‘barakalla’, ‘haqiqiy ota o‘g‘il’, xalqqa murojaat va omonlik tilagi asarda urush paytidagi burch va duo bilan tutashtirilgan. Shunday qilib, bu yerda belbog‘ birligi mazkur vaziyatda qahramonning boshqalar (Oqsoqol) tomonidan e’tirof etilgan yigitlik maqomining assotsiativ belgisi sifatida tanlangan, deyish mumkin. Bu o‘rinda berilgan bahoning Oqsoqol nutqiga tegishli ekani tabiiydir. ‘Haqiqiy ... yigit’ tushunchasi muallifning barcha erkaklarga bergan ta’rifi emas, shu vaziyatdagi personajning bahosidir.

Assotsiativ lug‘atdagi **mardlik** va **g‘urur** ma’nolari bilan badiiy kontekst o‘zaro tutashadi, biroq matn ularni konkret kommunikativ akt, tarixiy vaziyat bilan muvofiqlashtirgan.

*Chopon* so‘zi stimul sifatida olinganda, uning assotsiativ maydonida ham shunga o‘xshash, lekin yosh va avlod belgisi aniqroq bo‘lgan holat kuzatiladi. Bu so‘zda erkaklar kiyimi, buva, kuyov chopon kabi alohida tushunchalar ham mavjud, *chopon* stimuli shu tariqa bobo/ota/kuyov kabi turli yosh va oilaviy maqomlarni bitta predmet atrofida birlashtiradi. *Chopon* so‘zining assotsiativ maydoni badiiy matnda oilaviy ‘bobo/dada’ ma’nosidan chiqib, tarixiy shaxs va milliy xotira bilan ham tutashishi mumkin. Muhammad Yusufning quyidagi satrlarida *beqasam chopon* Cho‘lpon obrazi bilan birikadi:

*Rutubatli shimol o‘rmonlarida*
*Qayinlar ho‘ngrab quyoshni uyg‘otar.*
*Qarang, Cho‘lponingiz so‘nggi makonida*
*Beqasam choponin yopinib yotar*

*(*Muhammad Yusuf. Saylanma*)*

Bu kontekstda chopon → erkak/bobo/dada kabi lug‘aviy ifodalarning umumiy belgisi saqlansa-da, predmetning badiiy funksiyasi o‘zgargan. ‘Beqasam chopon’ Cho‘lponning tashqi kiyimini tasvirlash bilangina cheklanmay, uzoq ‘shimol o‘rmonlari’, ‘so‘nggi makon’ va shoir xotirasi bilan birikib, milliy xususiyat belgisiga aylangan. Markaziy poetik ma’no jins belgisi emas, *chopon* birligi orqali tarixiy shaxsni o‘zbekona madaniy xotira bilan tutashtiruvchi obraz vazifasini bajargan. Bu holat assotsiativ maydonning genderga xos hududini kengaytirishga xizmat qiladi. Berilgan matnda *chopon* birligining yosh, maqom, marosim, milliylik, tarixiy xotira yoki alohida xarakter bilan mutanosibligi yaqqol namoyon bo‘lgan.

Mazkur tamoyil “erkak” makrotushunchai bilan bog‘liq hayvon obrazlarida ham amal qiladi. Masalan, O‘tkir Hoshimov asaridan olingan misoldagi “*Safar aka ayiqdek lapanglab*...” birikmasi assotsiativ mexanizm nuqtayi nazaridan talqin qilinsa quyidagi holat

kuzatiladi: *sher* va *ayiq* birliklari garchi xotirada kuch, salobat, hajm, harakat yoki qo‘pollik singari belgilarni faollashtirishsa ham, matn ulardan kontekstga mos qismini tanlaydi.

*Ayiqdek* o‘xshatishning assotsiativ kuchi faqat ayiq – yiriklik/kuch bog‘lanishida emas. ‘*lapanglab’* fe’lining kinestetik tasavvurni beradi, demak, o‘xshatish personajning (Safar aka) gavdasi va yurishini konkret sahna bilan birga tasvirlaydi. Bu yerda ‘ayiq’ ifodasini barcha erkaklarning qiyofasi sifatida emas, ayni personajning harakatini ma’lum ma’noda ko‘z oldiga keltiruvchi individual assotsiativ signal sifatida talqin qilish kerak.

Bunda hayvon nomining gender ma’nosi ham bevosita lug‘aviy emas. ‘Sher’ning o‘zi erkak belgisiga ega emas; uning erkak personajga nisbatan qo‘llanishi va mavjud madaniy tajribadagi mardlik/kuch assotsiatsiyalari birlashgandagina, matn orqali kutilgan natija yuzaga keladi. Xuddi shuningdek, ayiq obrazi ham kontekstda Safar akaning yurishi va gavdasi bilan bog‘langan. Shunday ekan, assotsiativ mexanizmni quyidagicha ifodalash mumkin:

*badiiy signal → xotiradagi assotsiativ tarmoq → kontekstga mos belgini tanlash → personajning gender qiyofasi*

Mazkur shartli model badiiy metafora va o‘xshatishlarning qisqa ifodasini izohlaydi. Muallif ‘kuchli, bahaybat, og‘ir qadamli erkak’ deb bir necha sifatni sanash o‘rniga ‘ayiqdek lapanglab’ deya bir obrazni ko‘rsatadi, qolgan belgilar imkoniyat sifatida o‘quvchi o‘z xotirasida tiklanishi mumkin.

Demak, o‘zbek badiiy matnida gender tushunchasining assotsiativ maydoni predmet, marosim, qarindoshlik, emotsiya, baho va pretsedent obrazlarning o‘zaro bog‘langan tarmog‘i sifatida namoyon bo‘ladi. Badiiy matn umumiy aloqalarni individual ijodiy tajriba bilan qayta tashkil etib, mavjud tasavvurlarni takrorlashi, qayta yaratishi yoki transformatsiya qilishi mumkin.

**Adabiyotlar:**

1. Адонина Л.В. Концепт “женщина” в русском языковом сознании: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2007.

2. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017.
3. Ортиқова Ҳ.М. Бадиий матннинг ассоциатив тадқиқи (Э.Воҳидов ва А.Орипов шеърлари мисолида): филол. фан. бўй. фалс. докт. (PhD) дисс. – Тошкент, 2022.
4. Shukurova M.X. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyatida “ayol” konsepti (O.Hojiyeva va E.Siddiqova asarlari misolida): filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024.